



UDK 314.15-026.46:39(575.1)

Ravshan ABDUZOHIROV,

O'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ravshan.abduzohirov@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0002-7019-9302>

Professor, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida

QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING TOSHKENT SHAHRIGA ICHKI MIGRATSIYASI: TRANSLOKAL IDENTITET, IJTIMOYIY KAPITAL VA MADANIY GIBRIDIZATSIYA

Annotsatsiya

Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi aholisining Toshkent shahriga ichki migratsiyasi etnologik va antropologik jihatdan tahlil qilinadi. Dala tadqiqotlari, axborotchilar bilan chuqur suhbatlar va so'rovnomalar natijalari (n=150+) asosida migratsiyaning uchta asosiy ko'rinishi – translokal identitet shakllanishi, ijtimoiy kapital mexanizmlari va madaniy gibrizatsiya jarayoni – o'rganiladi. Tadqiqot natijasida respondentlarning 50,0 foizi o'zini bir vaqtning o'zida “Qashqadaryolik va Toshkentlik” deb identifikatsiya qilishi aniqlandi. P. Bourdieu ijtimoiy kapital nazariyasi doirasida bonding va bridging tarmoqlarning integratsiyada tutgan o'rni empirik asoslandi. Migratsiya ichki muhojirlarning madaniy identitetini yemirmasdan, aksincha uni kengaytirib, ko'p qatlamli tus berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ichki migratsiya, translokal identitet, ijtimoiy kapital, madaniy gibrizatsiya, Qashqadaryo, Toshkent, akkultursiya, bonding kapital, bridging kapital.

ВНУТРЕННЯЯ МИГРАЦИЯ НАСЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЫЙСКОГО ОАЗИСА В ГОРОД ТАШКЕНТ: ТРАНСЛОКАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ, СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ И КУЛЬТУРНАЯ ГИБРИДИЗАЦИЯ

Аннотация

В данной статье внутренняя миграция населения Кашкадарьинской области в город Ташкент анализируется с этнологической и антропологической точек зрения. На основе полевых исследований, углублённых интервью с информантами и результатов анкетного опроса (n=150+) рассматриваются три основных аспекта миграции: формирование транслокальной идентичности, механизмы социального капитала и процессы культурной гибридизации. В ходе исследования установлено, что 50,0% респондентов идентифицируют себя одновременно как «кашкадарьинцы» и «ташкентцы». Роль связывающих (bonding) и мостовых (bridging) сетей в рамках теории социального капитала П. Бурдьё была эмпирически обоснована. Показано, что миграция не разрушает культурную идентичность, а, напротив, расширяет её, придавая многослойный характер.

Ключевые слова: внутренняя миграция, транслокальная идентичность, социальный капитал, культурная гибридизация, Кашкадарья, Ташкент, аккультурация, связывающий капитал, мостовой капитал.

INTERNAL MIGRATION OF THE POPULATION OF THE KASHKADARYA OASIS TO TASHKENT CITY: TRANSLOCAL IDENTITY, SOCIAL CAPITAL, AND CULTURAL HYBRIDIZATION

Annotation

This article analyzes the internal migration of Kashkadarya region's population to Tashkent city from ethnological and anthropological perspectives. Based on field research, in-depth interviews with informants, and survey results (n=150+), three main aspects of migration are examined: the formation of translocal identity, social capital mechanisms, and cultural hybridization processes. The study found that 50.0% of respondents identify themselves simultaneously as both 'Kashkadaryans' and 'Tashkentians'. The role of bonding and bridging networks within P. Bourdieu's social capital framework was empirically substantiated. Migration was shown not to erode cultural identity but rather to expand it, giving it a multi-layered character.

Keywords: internal migration, translocal identity, social capital, cultural hybridization, Kashkadarya, Tashkent, acculturation, bonding capital, bridging capital.

Kirish. Ichki migratsiya – shaxsning bir xil davlat ichida bir hududdan boshqasiga ko'chib o'tishi – zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy hayotining muhim hodisalaridan biriga aylangan. Mustaqillik yillarida boshlangan urbanizatsiya jarayoni Toshkent shahriga yo'naltirilgan kuchli migratsiya oqimlarini keltirib chiqardi. 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha ko'chib keluvchi aholining 16 foizdan ortig'i Toshkent shahri va viloyatiga to'g'ri keldi [1]. Bu esa ichki migratsiyaning asosiy yo'nalishi Toshkent hududi ekanligini namoyon qiladi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistondagi eng faol migratsiya mintaqalaridan biri sifatida alohida o'ringa ega. Voha aholisi iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim va yaxshi turmush sharoiti izlab Toshkentga yo'l olmoqda. Biroq bu jarayon faqat

geografik ko'chish bilan chegaralanmaydi – u chuqur ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni, identitet transformatsiyasini va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishini ham o'z ichiga oladi.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyati ichki migratsiyaning iqtisodiy jihatlariga – ish bilan bandlik, daromad darajasi, turmush sharoiti – e'tibor qaratgan bo'lsa-da, etnologik va antropologik jihatlar – translokal identitet, ijtimoiy kapital mexanizmlari va madaniy gibrizatsiya – yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy kapital va migratsiya – tadqiqotchi P. Bourdieu ijtimoiy kapitalni shaxsga tegishli bo'lgan ijtimoiy aloqalar orqali olinadigan resurslar majmui sifatida ta'riflaydi [2]. Migratsiya kontekstida bu ta'rif

ayniqsa muhim: yangi shaharga ko'chib kelgan migrant avvalo o'zining mavjud ijtimoiy tarmoqlaridan – qarindoshlar, hamqishloqlar, do'stlar – foydalanib ish topadi, turar-joy izlaydi va moslashadi.

Tadqiqotchi R. Putnam ijtimoiy kapitalning ikki turini ajratadi: bonding (yaqin guruh ichidagi zich aloqalar) va bridging (turli guruhlar orasidagi ko'prik aloqalar)[5]. Migratsiya tadqiqotlarida bonding kapital dastlabki integratsiyani ta'minlash, bridging kapital uzoq muddatli ijtimoiy mobillikni belgilaydi. Tadqiqotchi M. Granovetter esa "kuchsiz aloqalarning kuchi" konsepsiyasida tanishlik tarmoqlarining ish topishda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatgan [6].

Translokallik identitet – tushunchasi shaxsning bir vaqtning o'zida bir nechta geografik makon bilan bog'liq holda o'zini identifikatsiya qilishini ifodalaydi. Bu hodisa global urbanizatsiya jarayonida keng o'rganilgan bo'lib [7], O'zbek migratsiyasi kontekstida esa hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko'rsatishicha, migrantlar ko'pincha «vataniga qaytish niyati» bilan ko'chadi, lekin amalda yangi joyda uzoq yashab qoladi va bu jarayonda ikki joyga tegishli identitet shakllanadi.

Madaniy gibrizatsiya – tadqiqotchi S. Hall postkolonial madaniyat nazariyasida identitetni dinamik, doimiy ravishda qayta shakllanadigan jarayon sifatida ko'radi [4]. Uning "uchinchi makon" konsepsiyasiga ko'ra, ikki madaniyat o'rtasidagi muloqotda yangi, gibriz madaniy shakllar paydo bo'ladi. Shahar antropologiyasi sohasida ham shunga o'xshash xulosalar mavjud: shahar muhiti migrantlarning o'z madaniyatini saqlab qolinishi va yangi madaniyat bilan sintez qilishiga imkon yaratadi [8]. Buning natijasida gibriz madaniyat shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifatli va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash metodologiyaga asoslanadi. Sifatli metodlar qatoriga ishtirokchi kuzatuv, yarim tuzilmali chuqur suhbat va hayot tarixi metodi kiradi. Miqdoriy usul sifatida so'rovnoma (n=150+) va statistik tahlil (MS Excel, SPSS 15) qo'llanildi.

Nazariy-metodologik asos sifatida P. Bourdieu ijtimoiy kapital nazariyasi [2], J. Berry akkul'turatsiya modeli [3], S. Hall madaniy gibrizlik nazariyasi [4] va R. Putnamning bonding/bridging kapital konsepsiyasi [5] qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Migratsiya turlari va motivlari migratsiya jarayonlarini asosini tashkil etuvchi hodisa hisoblanadi. Migratsiya jarayonlarini ichki xususiyatlarini o'rganishda Toshkentdagi Qashqadaryolik migrantlarni ikki asosiy turga ajratib ko'rsatildi. Birinchi tur – ta'lim maqsadida kelib, poytaxtda doimiy ish topib qolganlar. Ular asosan davlat tashkilotlari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritadi. Ikkinchi tur – xizmat ko'rsatish sohasida ish topib, xususiy sektorda faoliyat yurituvchilar: savdo, qurilish, transport va boshqa sohalarda ishlaydiganlar.

Axborotchilarimizning bergan ma'lumotlarga ko'ra [11], ko'chishning asosiy motivlari quyidagilardan iborat: iqtisodiy imkoniyatlar (85,3%), ta'lim (62,4%), farzandlar kelajagi (58,7%) va yaxshi tibbiy xizmat (41,2%). Shunisi e'tiborliki "poytaxtlik" maqomiga ega bo'lish istagi ham muhim motiv sifatida qayd etildi (34,6%) [13].

Ijtimoiy kapital: bonding va bridging tarmoqlar

Tadqiqot ish topish jarayonida ijtimoiy kapitalning hal qiluvchi rolini ko'rsatdi. Axborotchilarning 78,3 foizi birinchi ishini tanishlar orqali topganligi ma'lum bo'ldi. Poytaxtda mustaqil ravishda ish izlash ko'pincha natijasiz tugaydi.

Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra, "Bo'sh ish o'rinlariga mustaqil borsang, aksariyat hollarda ishga olmaydi. Lekin tanishning bor joyga u orqali borsang, munosabat butunlay boshqacha bo'ladi. Men o'sha maktabga qo'shni

maktabda ishlaydigan tanishim tavsiyasi bilan ishga joylashdim" [12].

Bu holat Bourdieu nazariyasini to'liq tasdiqlaydi: ijtimoiy kapital – ya'ni tanishlik va ishonch tarmog'i – mehnat bozorida rasmiy murojaat kanallaridan ko'ra samaraliroq ishlaydi [2]. Bonding kapital (qarindoshlar, hamqishloqlar) dastlabki joylashuvni ta'minlash, bridging kapital (yangi shahar muhitidagi keng tarmoqlar) uzoq muddatli moslashuv va kareraga ko'maklashadi.

Translokallik identitet: "Qashqadaryolik va Toshkentlik"

So'rovnoma natijalarida respondentlarning o'zini identifikatsiya qilish darajasi juda ko'rsatmali bo'ldi: 50,0 foizi o'zini "Qashqadaryolik va Toshkentlik" deb identifikatsiya qildi, 35,0 foizi "Qashqadaryolik", 5,0 foizi "Toshkentlik", 5,0 foizi "O'zbekiston fuqarosi" va 5,0 foizi "Hudud vakili" deb ko'rsatdi [13].

Bu raqamlar migratsiyaning identitetni yemirib, yangi bilan almashtirmasligini ko'rsatadi. Aksincha, 85 foizdan ko'pi hududiy identitetni saqlab qolgan. Translokallik identitet – bir vaqtning o'zida ham voha, ham shahar bilan bog'liq identifikatsiya – zamonaviy ichki migrant uchun eng xarakterli holat ekanligi aniqlandi.

Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlariga ko'ra: "Toshkentda yashayapman, ishlayman, bu yerda uyim ham bor. Lekin o'zimni Qashqadaryolik deb hisoblayman – u yerda ota-onam, qarindoshlarim bor. Ikki joyim bor – ikkalasi ham o'zimga" [11].

Bu holat «tan olish modeli» doirasida tahlil qilinganda shunday ko'rinadi: migrant yangi shahar muhitiga kirishda o'z mahalliy xususiyatlarini biroz chetlashtirishi kerak bo'ladi, chunki jamoaviy munosabatlarda poytaxt madaniy me'yorlariga moslashish taqozo etiladi. Biroq bu chetlashish to'liq emas – u kontekstual va situatsion xarakter kasb etadi.

Madaniy gibrizatsiya va selektiv moslashuv Toshkentdagi qashqadaryolik migrantlar orasida ham kuzatildi.

Tadqiqotimiz davomida Toshkentdagi Qashqadaryolik migrantlar orasida madaniy gibrizatsiyaning aniq belgilari kuzatildi. Ular poytaxt madaniy me'yorlarini – til uslubi, kiyinish, muomala tarzi – qabul qilarkan, o'zining mahalliy madaniy yadrosini saqlab qoladi: bayramlar, ovqat an'analari, qarindoshlik munosabatlari va diniy amaliyotlar.

Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra, "Toshkentda ko'p narsa o'zgardi – gapirish usulim, kiyinishim. Lekin uyda o'zbek ovqatlarini pishiramiz, Navro'zni katta nishonlaymiz, to'ylarga boramiz. Qashqadaryodan kelgan oshna-og'aynilar bilan ko'rishamiz. Bu bizni bir-birimizga bog'lab turadi" [12].

J. Berry akkul'turatsiya modeli doirasida bu holat «integratsiya» strategiyasining namunasidir: migrant yangi madaniyatni o'zlashtirar ekan, o'z an'anaviy qadriyatlarini ham saqlab qoladi [3]. S. Hall ta'riflagan "uchinchi makon" esa bu ikki madaniyat sintezining kundalik hayotdagi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi [4].

Tadqiqot natijalari bir-birini to'ldiruvchi uchta asosiy xulosani shakllantirdi. Birinchidan, Qashqadaryo vohasi aholisining Toshkentga ichki migratsiyasi oddiy geografik ko'chish emas – u ijtimoiy kapitalning qayta konfiguratsiyasi, madaniy gibrizatsiya va translokallik identitet shakllanishi orqali kechuvchi tizimli ijtimoiy o'zgarish mexanizmidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy kapital – ayniqsa bonding tarmoqlar – migratsiya jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Tanishlar tarmog'isiz poytaxtda joylashish juda qiyin" – bu nafaqat individual tajriba, balki tizimli ijtimoiy hodisadir. Tadqiqotchi Granovetter ta'riflagan "kuchsiz aloqalarning kuchi" Toshkent mehnat bozorida ham to'liq namoyon bo'lmoqda [6].

Uchinchidan, respondentlarning 85 foizidan ko'pining hududiy identitetini saqlab qolganligi migratsiyaning madaniy merosni buzuvchi emas, uni kengaytiruvchi omil ekanligini isbotlaydi. Bu topilma mavjud tadqiqotlarda ko'pincha kuzatiladigan "migratsiya madaniy eroziyaga olib keladi" degan stereotipni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Qashqadaryo vohasi aholisining Toshkent shahriga ichki migratsiyasi ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirdi:

Birinchidan, Toshkentdagi Qashqadaryolik muhojirlar ikki turga bo'linadi: ta'lim orqali davlat sektoriga o'tganlar va xizmat ko'rsatish sohasi orqali xususiy sektorda faoliyat yurituvchilar. Ikkala guruh uchun ham ijtimoiy kapital – tanishlik va tavsiya tarmog'i – ish topish va joylashishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Ikkinchidan, respondentlarning 50,0 foizida kuzatilgan translokallik hodisasi – o'zini bir vaqtning o'zida ham "Qashqadaryolik", ham "Toshkentlik" deb his qilish – migratsiyaning identitetni almastirmasligini, aksincha kengaytirib ko'p qatlamli tus berishini isbotlaydi.

Uchinchidan, selektiv moslashuv va madaniy gibrizatsiya Qashqadaryolik migrantlarning Toshkentga integratsiyasini tavsiflovchi asosiy mexanizm sifatida aniqlandi: ular poytaxt me'yorlarini qabul qilarkan, o'z madaniy yadrolarini – ovqat, bayramlar, til, qarindoshlik munosabatlari – saqlab qoladi.

Mazkur tadqiqot ichki migratsiya tizimini ishlab chiquvchi davlat organlari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi: migratsiya jarayonida madaniy identitetni saqlash va ijtimoiy kapitaldan samarali foydalanish mexanizmlarini hisobga olgan tizimli ishlarni yaratish, yanada muvaffaqiyatli natija beradi.

ADABIYOTLAR

1. United Nations. International Migration Report 2020. – New York: United Nations, 2020. – 46 p.
2. Bourdieu P. The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education / Ed. by J.G. Richardson. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.
3. Berry J.W. Immigration, Acculturation, and Adaptation // Applied Psychology: An International Review. – 1997. – Vol. 46, № 1. – P. 5–68.
4. Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference / Ed. by J. Rutherford. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.
5. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.
6. Granovetter M.S. The Strength of Weak Ties // American Journal of Sociology. – 1973. – Vol. 78, № 6. – P. 1360–1380.
7. Isabaeva E. Leaving to Enable Others to Remain: Remittances and New Moral Economies of Migration in Southern Kyrgyzstan // Central Asian Survey. – 2011. – Vol. 30, № 3–4. – P. 541–554.
8. Anarkulov S.M. Zamonaviy sanoat shaharlarida ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonlari (Toshkent viloyati shaharlari misolida): falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent: O'zMU, 2021. – 187 b.
9. Massey D.S., Arango J., Hugo G. et al. Theories of International Migration: A Review and Appraisal // Population and Development Review. – 1993. – Vol. 19, № 3. – P. 431–466.
10. Alimov S.K. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. – Toshkent: Fan, 2019. – 128 b.
11. Dala yozuvlari. Toshkent shahri Yangi Hayot tumani Yangi Darxon MFY., 2023-yil.
12. Dala yozuvlari. Toshkent shahri Olmazor tumani G'alaba MFY., 2024-yil.
13. So'rovnoma natijalari. Toshkent shahri 2025-yil.
14. So'rovnoma natijalari. Qashqadaryo viloyati 2022-yil.